

Konstitutsiya – baxt qomusi

Konstitutsiya qomusiy hujjat sifatida davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishi, uning boshqaruv shakli, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlari, shaxsning huquqi, erkinligi va burchlarini belgilab beradi. Bu yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 28 yil to'ladi. "Gidromelioratsiya" fakultetining 4-talabalar turar joyida talaba-yoshlarga "Konstitutsiya – baxtimiz qomusi" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirda fakultetning "Gidravlika va gidroinformatika" kafedra mudiri A.Arifjonov, "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasini dotsenti F. Gapparov va "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar nomzodi X.Nazarov hamda professor-o'qituvchilar ishtirok etdi.



Shu bilan birga, Konstitutsiyada xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni boy madaniy va ma'naviy merosimizni asrab-avaylashga o'rgatish bilan bog'liq masalalar ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab-avaylashga majburligi to'g'risidagi me'yor shu yurt fuqarolarining asosiy burchlaridan biri sifatida belgilangan. Davra suhbatini yakunida yoshlarimiz bilan bo'layotgan uchrashuvlarda Konstitutsiyamizdagi normalarni keng tushuntirishlari maqsadga muvofiqligi aytib o'tildi.



TIQXMMI matbuot xizmati